“TASDIQLANGAN” «AGAT CREDIT» MChJ QK MMT Kuzatuv kengashining qarori bilan Kuzatuv Kengashining Raisi:	**«УТВЕРЖДЕНО»** Решением Наблюдательного Совета СП ООО МФО «AGAT CREDIT» Председатель Наблюдательного Совета:
(imzo/подпись) M.H./М.П.	
Mangitov A.A. 2025 yil «23» may da	Мангитов А.А. От «23» мая 2025 года
“RO‘YXATDAN O‘TKAZILGAN” O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi Direktorning birinchi o‘rinbosari	**«ЗАРЕГИСТРИРОВАНО»** Национальным агентством перспективных проектов Республики Узбекистан Первый заместитель директора
(imzo/подпись) M.U./М.П.	
Pak V.Yu. 2025 yil «8» iyulb dagi P1079-2 sonli qaror bilan	Пак В.Ю. № P1079-2 от «8» июля 2025 г.

OBLIGATSIYALAR CHIQARILISHI TO‘G‘RISIDAGI QAROR
«AGAT CREDIT» MChJ QK MMT

РЕШЕНИЕ О ВЫПУСКЕ ОБЛИГАЦИЙ
СП ООО МФО «AGAT CREDIT»

Присвоен идентификационный номер: **Identifikatsiya raqami berildi:**	R	U	3	0	2	P	1	0	7	9	T	2			

Foizli egasi yozilgan korporativ obligatsiya, hujjatsiz shaklda
300 000 (uch yuz ming) dona, nominal qiymati 100 000 (yuz ming) so‘m, umumiy summasi 30 000 000 000 (o‘ttiz milliard) so‘m.

Mazkur chiqarilishdagi korporativ obligatsiyalar ochiq obuna usulida joylashtiriladi.
Ushbu korporativ obligatsiyalar chiqarilishi 2-chi (ikkinchi) chiqarilish hisoblanadi.

“AGAT CREDIT” MChJ QK MMT Kuzatuv kengashi tomonidan 2025-yil “23” may dagi D-06-sonli Bayonnoma bilan korporativ obligatsiyalarni chiqarish to‘g‘risidagi qaror tasdiqlangan.

“AGAT CREDIT” MChJ QK MMT Kuzatuv kengashining 2025-yil “23” may dagi D-06-sonli Bayonnoma bilan korporativ obligatsiyalarni chiqarish to‘g‘risidagi qaror qabul qilingan.

Emitentning joylashgan joyi, pochta manzili va muloqot telefonlari:
O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Buyuk Ipak Yo‘li ko‘chasi, 127A / tel.: (71) 205-80-20 / info@agat.credit.uz / www.agatcredit.uz

Процентная именная корпоративная облигация, в бездокументарной форме
в количестве 300 000 (трехсот тысяч) штук, по номинальной стоимости 100 000 (сто тысяч) сум, на общую сумму 30 000 000 000 (тридцать миллиардов) сум.

Корпоративные облигации данного выпуска будут размещены методом открытой подписки.
Данный выпуск корпоративных облигаций является 2-м (вторым) выпуском.

Решение о выпуске корпоративных облигаций утверждено Протоколом Наблюдательного Совета СП ООО МФО «AGAT CREDIT» № D-06 от «23» мая 2025 года.
Решения о выпуске корпоративных облигаций принято Протоколом Наблюдательного Совета СП ООО МФО «AGAT CREDIT» № D-06 от «23» мая 2025 года.

Место нахождения эмитента, контактный телефон и почтовый адрес:
Республика Узбекистан, город Ташкент, улица Буюк Ипак Йули, 127A / тел.: (71) 205-80-20 / info@agat.credit.uz / www.agatcredit.uz

Bosh direktori:	Генеральный директор:
(imzo/подпись)	
A.P. Dmitriev	А.П. Дмитриев

Bosh buxgalter:	Главный бухгалтер:
(imzo/подпись)	
B.Sh. Xusainov	Б.Ш. Хусаинов

2025 yil «23» may

«23» мая 2025 года

1.	**Ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalarning ko‘rinishi va turi (oddiy, yutuqli, foizli, foizsiz (maqsadli) va hokazo):**	**Вид и тип облигаций данного выпуска (обыкновенные, выигрышные, процентные, беспроцентные (целевые):**
	Egasining nomi yozilgan foizli korporativ obligatsiyalar.	Процентная именная корпоративная облигация.
2.	**Ushbu obligatsiyalar chiqarilishining shakli:**	**Форма данного выпуска облигаций:**
	Hujjatsiz shaklda.	В бездокументарной форме.
3.	**Ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalarning nominal qiymati (so‘m):**	**Номинальная стоимость облигаций данного выпуска (сум):**
	100 000 (yuz ming) so’m	100 000 (сто тысяч) сум.
4.	**Ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalarning soni (dona):**	**Количество облигаций данного выпуска (шт.):**
	300 000 (uch yuz ming) dona	300 000 (триста тысяч) штук.
5.	**Ushbu chiqarilishning umumiy hajmi (so‘m):**	**Общий объем данного выпуска (сум):**
	30 000 000 000 (uch yuz milliard) so’m	30 000 000 000 (тридцать миллиардов) сум.
6.	**Ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalar egalarining huquqlari:** *(Ko‘rsatiladi:* *obligatsiyalarni chiqarish to‘g‘risidagi qarorda belgilangan muddatda emitentdan obligatsiyalarning nominal qiymatiga teng bo‘lgan summa miqdorini yoki boshqa mol-mulk ekvivalentini olish huquqi, shuningdek, obligatsiyalarning nominal qiymatining belgilangan foizini yoki obligatsiyalar chiqarish to‘g‘risidagi qaror bilan belgilangan boshqa mulkiy huquqlarni olish huquqi;* *amalga oshirish shartlari, tartibi va muddatlari ko‘rsatilgan holda, shu jumladan, emitentning o‘z kapitali kamayganida va uning tashkiliy-huquqiy shakli o‘zgarganida, emitent tomonidan obligatsiyalarni qaytarib sotib olishni talab qilish huquqi. Bunda, emitentning o‘z kapitalining kamayishi to‘g‘risidagi ma’lumotni oshkor qilish tartibi ko‘rsatilishi kerak;* *boshqa huquqlar).*	**Права владельцев облигаций данного выпуска:** *(Указываются:* *право получения от эмитента в предусмотренный решением о выпуске облигаций срок номинальной стоимости облигаций либо получения иного имущественного эквивалента, а также право на получение фиксированного по ней процента от номинальной стоимости облигации либо иных имущественных прав, установленных решением о выпуске (проспектом эмиссии) облигаций;* *право требования выкупа эмитентом облигаций с указанием условий, порядка и сроков реализации данного права, в том числе при уменьшении собственного капитала эмитента и изменении его организационно-правовой формы. При этом необходимо указать порядок раскрытия эмитентом информации об уменьшении его собственного капитала; иные права.)*
	Ushbu chiqarishdagi har bir obligatsiya uning egasiga teng hajmdagi huquqlarni taqdim etadi. Obligatsiya egasi quyidagi huquqlarga ega: – obligatsiyaning muddati tugagach, uning nominal qiymatini va foiz shaklida to‘lanadigan kupon daromadini olish huquqiga; – Emitentning o‘z mablag‘lari miqdori ushbu emissiya doirasidagi to‘lanmagan obligatsiyalar hajmidan kamaygan taqdirda, obligatsiyalar bo‘yicha majburiyatlarni muddatidan oldin bajarishni va yetkazilgan zararni qoplashni talab qilish huquqiga. Emitentning o‘z mablag‘lari miqdori haqidagi ma’lumotlar har chorak yakunida uning rasmiy veb-saytida (www.agatcredit.uz) e’lon qilinadi. Ushbu ma’lumot belgilangan muddatda e’lon qilinmagan taqdirda, obligatsiya egasi ushbu ma’lumotni taqdim etishni talab qilish huquqiga ega; – Emitentning tashkiliy-huquqiy shakli o‘zgargan taqdirda, obligatsiyalar bo‘yicha majburiyatlarni muddatidan oldin bajarishni va yetkazilgan zararni qoplashni talab qilish huquqiga. Emitentning tashkiliy-huquqiy shaklidagi o‘zgarishlar haqidagi ma’lumotlar qonunchilikka muvofiq Yagona korporativ axborot portalida (openinfo.uz) va Emitentning rasmiy veb-saytida (www.agatcredit.uz) e’lon qilinadi. Ushbu ma’lumot e’lon qilinmagan taqdirda, obligatsiya egasi uni taqdim etishni talab qilish huquqiga ega; – amaldagi qonunchilikka muvofiq obligatsiyalar emissiyasi amalga oshmagan yoki haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, “AGAT CREDIT” MChJ QK MMT obligatsiya egalari oldida ularning investitsiya qilingan mablag‘larini, shuningdek obligatsiyalar muomalada bo‘lgan oraliq davr uchun hisoblangan foizlarni qaytarish majburiyatini oladi; – o‘ziga tegishli obligatsiyalarni erkin sotish va boshqa usulda begonalashtirish; – Emitent tomonidan obligatsiyalar chiqarilish shartlariga rioya qilishning imkoni bo‘lmagan har qanday	Каждая облигация настоящего выпуска предоставляет ее владельцу равный объем прав. Владелец облигации имеет право: – на получение при погашении облигаций в предусмотренный ею срок номинальной стоимости облигации и купонного дохода в виде процента; – в случае уменьшения размера собственного капитала Эмитента ниже объема непогашенных облигаций данного выпуска требовать погашения обязательств по облигациям, их досрочного выполнения и возмещения нанесенного ущерба. Информация о размере собственного капитала Эмитента регулярно публикуется на его официальном веб-сайте (www.agatcredit.uz) по окончании отчетного квартала. В случае, если такая информация не раскрыта в установленный срок, владелец облигаций имеет право потребовать ее предоставления; – в случае изменения организационно-правовой формы Эмитента требовать погашения обязательств по облигациям, их досрочного выполнения и возмещения нанесенного ущерба. Информация об изменении организационно-правовой формы эмитента раскрывается на Едином портале корпоративной информации (openinfo.uz) и на официальном веб-сайте эмитента (www.agatcredit.uz) в соответствии с законодательством. В случае неразмещения данной информации владелец облигаций имеет право потребовать ее предоставления; – в случае признания в соответствии с действующим законодательством выпуска облигаций несостоявшимся или недействительным, СП ООО МФО «AGAT CREDIT» обязуется обеспечить владельцам облигаций возврат инвестированных средств, а также причитающиеся проценты (за фактический срок обращения облигаций в промежуточном периоде, в котором выпуск облигаций был признан несостоявшимся); – свободно продавать и иным способом отчуждать принадлежащие ему облигации;

	holat yuzasidan investorlarni darhol yozma ravishda xabardor qilishni talab qilish huquqiga; – Emitentning obligatsiya egalari oldidagi majburiyatlarini bajarish va ushbu majburiyatlarning ta'minlanishi bilan bog'liq ma'lumotlardan foydalanish huquqiga; – mazkur qarorda belgilangan majburiyatlarning bajarilishi bilan bog'liq holda davlat organlari va sudlarda o'z manfaatlarini himoya qilish huquqiga; – O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa huquqlarni amalga oshirish huquqiga ega.	– требовать от Эмитента незамедлительного письменного уведомления инвесторов о любой невозможности соблюдать условия выпуска облигаций; – иметь доступ к информации, касающейся исполнения Эмитентом своих обязательств перед держателями облигаций и обеспечения исполнения указанных обязательств; – защитить свои интересы в государственных органах и судах в связи с исполнением обязанностей, установленных настоящим решением; – осуществлять иные права, предусмотренные законодательством Республики Узбекистан.
7.	**Ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalarni sotib olinishiga nisbatan cheklashlar:** *(Cheklashlar ko'rsatilayotganda cheklovlarga asos bo'lgan hujjat(lar) va (yoki) qonunchilik hujjatlarini ko'rsatish lozim.)*	**Ограничения на приобретение облигаций данного выпуска:** *(При описании ограничений необходимо указать документ (документы) и (или) законодательные акты, согласно которым устанавливаются ограничения.)*
	Ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalarni sotib olishga cheklovlar ko'zda tutilmagan.	Ограничения на приобретение облигаций данного выпуска не предусмотрены.
8.	**Jamiyat ustav kapitalining miqdori (so'm):**	**Размер уставного капитала эмитента (сум):**
	Chiqarish to'g'risidagi qaror qabul qilingan sanada ustav kapitali 73 715 686 004 (Yetmish uch milliard yetti yuz o'n besh million olti yuz sakson olti ming to'rt) so'mni tashkil etadi.	Уставной капитал на дату принятия решения о выпуске составляет 73 715 686 004 (Семьдесят три миллиарда семьсот пятнадцать миллионов шестьсот восемьдесят шесть тысяч четыре) сум.
9.	**Ilgari joylashtirilgan aksiyalar soni** *(turlari bo'yicha taqsimlangan holda ko'rsatiladi)*	**Количество ранее размещенных акций** *(указывается с разбивкой по типам)*:
	Emitentning tashkiliy-huquqiy shakli mas'uliyati cheklangan jamiyat bo'lganligi sababli, aksiyalar chiqarilmagan.	Организационно-правовая форма эмитента – общество с ограниченной ответственностью. В связи с этим акции не выпускались.
10.	**Ilgari joylashtirilgan obligatsiyalar soni** *(turlari va ko'rinishlari bo'yicha taqsimlangan holda ko'rsatiladi):*	**Количество ранее размещенных облигаций** *(указывается с разбивкой по типам)*:
	Istiqbolli loyihalar milliy agentligining 11.03.2025 yildagi P1079-son qaroriga muvofiq (identifikatsiya raqami: RU301P1079T4), "AGAT CREDIT" MCHJ QK MMT obligatsiyalarining quyidagi parametrlarga ega birinchi chiqarilishi ro'yxatdan o'tkazildi: **Obligatsiyalarning ko'rinishi va turi:** foizli, egasining nomi yozilgan, korporativ obligatsiyalar; **Obligatsiyalarni chiqarish shakli:** hujjatsiz; **Bitta obligatsiyaning nominal qiymati (so'm):** 100 000 (yuz ming) so'm; **Obligatsiyalarning umumiy soni (dona):** 400 000 (to'rt yuz ming) dona; **Chiqarishning umumiy hajmi (so'm):** 40 000 000 000 (qirq milliard) so'm; **Muomala muddati (kun):** 365 (uch yuz oltmish besh) kun; **Joylashtirish muddati (kun):** joylashtirish boshlangan sanadan boshlab 90 (to'qson) ish kuni; **Joylashtirish boshlanadigan sana:** 2025-yil 2-aprel; **Joylashtirish tugaydigan sana:** 2025-yil 11-avgust; **Mukofot stavkasi**: yillik 29%.	В соответствии с Решением Национального агентства перспективных проектов от 11.03.2025 № P1079 (идентификационный номер: RU301P1079T4), был зарегистрирован первый выпуск облигаций СП ООО МФО «AGAT CREDIT» со следующими параметрами: **Вид и тип облигаций:** процентные, именные, корпоративные; **Форма выпуска:** бездокументарная; **Номинальная стоимость одной облигации:** 100 000 (сто тысяч) сум; **Общее количество облигаций:** 400 000 (четыреста тысяч) штук; **Общий объем выпуска:** 40 000 000 000 (сорок миллиардов) сум; **Срок обращения:** 365 (триста шестьдесят пять) дней; **Срок размещения:** 90 (девяносто) рабочих дней с даты начала размещения; **Дата начала размещения:** 2 апреля 2025 года; **Дата окончания размещения:** 11 августа 2025 года; **Ставка вознаграждения:** 29% годовых.
11.	**Ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalar joylashtirilishining shartlari va tartibi:**	**Условия и порядок размещения облигаций данного выпуска.**
11.1.	**Ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalar joylashtirilishining usuli (ochiq yoki yopiq obuna):** *(Yopiq obuna bo'lgan taqdirda, shuningdek obligatsiyalarni potensial oluvchilar doirasi ham ko'rsatiladi.).*	**Способ размещения облигаций данного выпуска:** *(В случае закрытой подписки указывается также круг потенциальных приобретателей облигаций.)*
	Ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalar cheklanmagan doiradagi shaxslar o'rtasida ochiq obuna bo'yicha joylashtiriladi.	Облигации данного выпуска размещаются по открытой подписке среди неограниченного круга лиц.
11.2.	**Ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalar joylashtirilishining muddati:**	**Срок размещения облигаций данного выпуска** *(Указываются: дата начала и дата окончания размещения облигаций или порядок определения срока размещения облигаций.*

	(Ko'rsatiladi: obligatsiyalarni joylashtirishni boshlash sanasi va tugatish sanasi yoki obligatsiyalarni joylashtirish muddatini belgilash tartibi. Agar obligatsiyalarni joylashtirish muddati obligatsiyalarni chiqarilishi to'g'risidagi biron-bir axborotni oshkor qilish sanasini ko'rsatgan holda belgilansa, shuningdek bunday axborotni oshkor qilish tartibi ham ko'rsatiladi.).	*В случае, если срок размещения облигаций определяется указанием на даты раскрытия какой-либо информации о выпуске облигаций, также указывается порядок раскрытия такой информации.)*:
	Ushbu chiqarilish doirasidagi obligatsiyalar joylashtirilishi obligatsiyalar joylashtirilishining boshlanish sanasidan boshlab 90 (to'qson) ish kuni davomida amalga oshiriladi. Obligatsiyalarni joylashtirish emitent tomonidan "FREEDOM FINANCE" MCHJ XK investitsiya vositachisini jalb qilgan holda amalga oshiriladi, u emitentga obligatsiyalarni joylashtirish bo'yicha xizmatlar, shu jumladan anderrayting xizmatlarini ko'rsatadi. Obligatsiyalarni joylashtirishning boshlanish sanasi - "Toshkent" RFBning birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan kun, biroq chiqarishni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risidagi xabar e'lon qilinganidan va u Emitentning rasmiy veb-saytida (www.agatcredit.uz) va O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligining Yagona korporativ axborot portalida (www.new.openinfo.uz) joylashtirilganidan keyin ikki haftadan oldin emas. Agar ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalar birja kotirovkalash varag'iga savdo kuni tugagandan so'ng, shuningdek bayram yoki dam olish kunida kiritilgan bo'lsa, u holda joylashtirishning boshlanish sanasi ushbu kunlardan keyingi birinchi ish kuniga ko'chiriladi. Obligatsiyalarni joylashtirish tugash sanasi - ushbu chiqarishdagi so'nggi obligatsiya investorga joylashtirilgan sana hisoblanadi, biroq bu muddat har qanday holatda ham obligatsiyalarni joylashtirish boshlangan kundan e'tiboran 90 (to'qson) ish kunidan oshmasligi kerak.	Облигации данного выпуска будут размещаться в течение 90 (девяноста) рабочих дней с даты начала размещения облигаций. Размещение облигаций осуществляется Эмитентом с привлечением инвестиционного посредника ИП ООО «FREEDOM FINANCE», который предоставляет эмитенту услуги по размещению облигаций, включая услуги андеррайтинга. Дата начала размещения облигаций – день включения в биржевой котировальный лист РФБ «Тошкент», но не ранее двух недель после публикации сообщения о государственной регистрации выпуска и его размещения на официальном веб-сайте Эмитента (www.agatcredit.uz) и Едином портале корпоративной информации Национального агентства перспективных проектов Республики Узбекистан (www.new.openinfo.uz). В случае, если облигации данного выпуска включены в биржевой котировальный лист после окончания торгового дня, а также в праздничный или выходной день, то дата начала размещения переносится на первый рабочий день, следующий за этими днями. Окончание размещения облигаций – дата размещения инвестору последней облигации из настоящего выпуска, но в любом случае не более 90 (девяноста) рабочих дней с даты начала размещения облигаций.
11.3.	**Ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalar joylashtirilishining tartibi:** *(Ko'rsatiladi: obligatsiyalar joylashtirilishining borishida fuqarolik-huquqiy bitimlar tuzilishining tartibi va shartlari, joylashtirish amalga oshiriladigan bozorlar.* *Agar emitent tomonidan obligatsiyalarni joylashtirish emitentga obligatsiyalarni joylashtirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilarini (anderrayterlar) jalb qilish bilan amalga oshirilsa, har bir bunday shaxs yuzasidan qo'shimcha ravishda quyidagilar ko'rsatiladi:* *to'liq va qisqartirilgan firma nomlari, joylashgan joyi;* *professional faoliyatni amalga oshirishga doir litsenziyaning raqami, berilgan ?anasi va amal qilish muddati, ko'rsatilgan litsenziyani bergan organ;* *ushbu shaxsning asosiy vazifalari, agar emitent va unga qimmatli qog'ozlarni joylashtirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi shaxs o'rtasidagi shartnomada shu kabi shartnoma bilan belgilangan muddatlarda joylashtirilmagan obligatsiyalarni oxirgisi tomonidan o'z hisobidan olinishi nazarda tutilgan bo'lsa, shuningdek ushbu muddat va uni belgilash tartibi.).*	**Порядок размещения облигаций данного выпуска:** *(Указываются: порядок и условия заключения гражданско-правовых сделок в ходе размещения облигаций; рынки, через которые будет осуществляться размещение.* *В случае, если размещение облигаций осуществляется эмитентом с привлечением профессиональных участников рынка ценных бумаг, оказывающих эмитенту услуги по размещению облигаций (андеррайтеры), по каждому такому лицу дополнительно указываются:* *полное и сокращенное фирменные наименования, место нахождения;* *номер, дата выдачи и срок действия лицензии на осуществление профессиональной деятельности, орган, выдавший указанную лицензию;* *основные функции данного лица, а если договором между эмитентом и лицом, оказывающим ему услуги по размещению облигаций, предусматривается приобретение последним за свой счет облигаций, не размещенных в срок, установленный таким договором, — также этот срок или порядок его определения.)*
	Ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalar birja qoidalariga muvofiq oldi-sotdi bitimlarini tuzish yo'li bilan "Toshkent" RFBda cheklanmagan doiradagi shaxslar o'rtasida tashkil etilgan savdolarda joylashtiriladi. Obligatsiyalarni joylashtirish emitent tomonidan emitentga obligatsiyalarni joylashtirish bo'yicha xizmatlar, shu jumladan anderrayting xizmatlarini ko'rsatuvchi "FREEDOM FINANCE" MCHJ XK investitsiya vositachisini jalb qilgan holda amalga oshiriladi. **Investitsiya vositachisi:** To'liq nomi: "FREEDOM FINANCE" mas'uliyati cheklangan jamiyati shaklidagi xorijiy korxona.	Облигации данного выпуска размещаются на организованных торгах среди неограниченного круга лиц на РФБ «Тошкент» путем заключения сделок купли-продажи в соответствии с биржевыми правилами. Размещение облигаций осуществляется эмитентом с привлечением инвестиционного посредника ИП ООО «FREEDOM FINANCE», оказывающих эмитенту услуги по размещению облигаций, в том числе услуги андеррайтинга. **Инвестиционный посредник:** Полное наименование: Иностранное предприятие в форме Общества с ограниченной ответственностью «FREEDOM FINANCE».

	Tashkiliy-huquqiy shakli: Mas'uliyati cheklangan jamiyat (MCHJ). Manzil va bog'lanish uchun ma'lumotlar: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur shohko'chasi, 107B, Xalqaro biznes markazi, S blok, 12-qavat. Murojaat uchun telefon: +998 78 147-75-55. Elektron pochta: info@ffin.uz Litsenziya raqami, berilgan sanasi va amal qilish muddati, shuningdek ko'rsatilgan litsenziyani bergan organ: Qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya vositachisining professional faoliyatini amalga oshirish uchun Qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish markazi tomonidan 2018-yil 22-oktyabrda berilgan 1337-sonli litsenziya. Litsenziyaning amal qilish muddati cheklanmagan. Jamiyat va qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchisi o'rtasidagi shartnomaning sanasi va raqami: 26.05.2025-yildagi 2/25AD-son. Tuzilgan shartnomaga muvofiq anderrayterning asosiy vazifalari: – emitent to'g'risida xolisona taqdimnoma tuzish maqsadida emitentni dastlabki o'rganishni amalga oshirish; – emitent bilan birgalikda obligatsiyalarni chiqarish va joylashtirishning maqbul tuzilmasini shakllantirish; – emitent obligatsiyalarini anderrayting xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi shartnomada belgilangan narx va muddatlarda eng yaxshi sa'y-harakatlar (Best efforts) tamoyili bo'yicha joylashtirishni amalga oshirish; – obligatsiyalarni joylashtirishdan tushgan mablag'larni emitentga to'lash.	Организационная-правовая форма: Общество с ограниченной ответственностью (ООО). Местонахождение и контактные данные: 100084, город Ташкент, проспект Амир Темур, 107Б, Международный бизнес-центр, С блок, 12 этаж. Контактный телефон: +998 78 147-75-55. Электронная почта: info@ffin.uz Номер лицензии, дата выдачи и срок действия, а также орган, выдавший указанную лицензию: Лицензия №1337 на осуществление профессиональной деятельности инвестиционного посредника на рынке ценных бумаг выдана Центром по координации и развитию рынка ценных бумаг 22 октября 2018 года. Срок действия лицензии не ограничен. Дата и номер договора между Обществом и профессиональным участником рынка ценных бумаг: № 2/25AD от 26.05.2025 года. Основные функции андеррайтера согласно заключенному договору: – проведение предварительного изучения Эмитента, в целях составления объективного представления об Эмитенте; – формирование совместно с эмитентом оптимальной структуры выпуска и размещения облигаций; – проведение размещения облигаций эмитента по принципу наилучших усилий (Best efforts) по цене и в сроках, определенными договором об оказании андеррайтинговых услуг; – выплата эмитенту средств от размещения облигаций.
11.4.	**Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariyisi va qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olishni amalga oshiruvchi investitsiya vositachisining tashkiliy-huquqiy shaklini o'z ichiga olgan to'liq firma nomi, joylashgan joyi, pochta manzili, telefoni:**	**Полное фирменное наименование, включая организационно-правовую форму, место нахождения, почтовый адрес, телефон Центрального депозитария ценных бумаг и инвестиционного посредника, осуществляющего учет прав на ценные бумаги:**
	Markaziy depozitariy to'g'risida ma'lumot: To'liq nomi: "Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi" aksiyadorlik jamiyati. Tashkiliy-huquqiy shakli: Aksiyadorlik jamiyati (AJ). Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Mustaqillik shoh ko'chasi, 107-uy. Murojaat uchun telefonlar: +998 71 267-37-42, +998 71 267-35-92. Faks: +998 71 267-37-42. Elektron pochta: info@uzcsd.uz Veb-sayt: www.uzcsd.uz Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 21-maydagi 263-sonli qarori asosida amalga oshiradi. **Investitsiya vositachisi to'g'risida ma'lumot:** To'liq nomi: "FREEDOM FINANCE" mas'uliyati cheklangan jamiyati shaklidagi xorijiy korxona. Tashkiliy-huquqiy shakli: Mas'uliyati cheklangan jamiyat (MCHJ). Manzil va bog'lanish uchun ma'lumotlar: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur shohko'chasi, 107B, Xalqaro biznes markazi, S blok, 12-qavat. Murojaat uchun telefon: +998 78 147-75-55. Elektron pochta: info@ffin.uz	**Информация об Центральный депозитарий:** Полное наименование: Акционерное Общество «Центральный депозитарий ценных бумаг». Организационно-правовая форма: Акционерное Общество (АО). Местонахождение и почтовый адрес: 100170, город Ташкент, Мирзо-Улугбекский район, проспект Мустакиллик, 107; Контактные телефоны: +998 71 267-37-42, +998 71 267-35-92. Факс: +998 71 267-37-42. Электронная почта: info@uzcsd.uz Веб-сайт: www.uzcsd.uz Центральный депозитарий ценных бумаг осуществляет свою деятельность на основании Постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан №263 от 21 мая 1999 года. **Информация об Инвестиционном посреднике:** Полное наименование: Иностранное предприятие в форме Общества с ограниченной ответственностью «FREEDOM FINANCE». Организационная-правовая форма: Общество с ограниченной ответственностью (ООО).

	Litsenziya raqami, berilgan sanasi va amal qilish muddati, shuningdek ko‘rsatilgan litsenziyani bergan organ: Qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsiya vositachisining professional faoliyatini amalga oshirish uchun Qimmatli qog‘ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish markazi tomonidan 2018-yil 22-oktyabrda berilgan 1337-sonli litsenziya. Litsenziyaning amal qilish muddati cheklanmagan. Jamiyat va qimmatli qog‘ozlar bozorining professional ishtirokchisi o‘rtasidagi shartnomaning sanasi va raqami: 15.01.2025- yildagi 016633/25AD-son.	Местонахождение и контактные данные: 100084, город Ташкент, проспект Амир Темур, 107Б, Международный бизнес-центр, С блок, 12 этаж. Контактный телефон: +998 78 147-75-55. Электронная почта: info@ffin.uz Номер лицензии, дата выдачи и срок действия, а также орган, выдавший указанную лицензию: Лицензия №1337 на осуществление профессиональной деятельности инвестиционного посредника на рынке ценных бумаг выдана Центром по координации и развитию рынка ценных бумаг 22 октября 2018 года. Срок действия лицензии не ограничен. Дата и номер договора между Обществом и профессиональным участником рынка ценных бумаг: № 016633/25AD от 15.01.2025 года.
11.5.	**Ovoz beruvchi aksiyalarga ayirboshlanadigan joylashtirilayotgan obligatsiyalarni olishga bo‘lgan imtiyozli huquqni amalga oshirish tartibi:** *(Ovoz beruvchi aksiyalarga ayirboshlanadigan joylashtirilayotgan obligatsiyalarni olishga bo‘lgan imtiyozli huquq taqdim etilgan taqdirda quyidagilar ko‘rsatiladi: bunday imtiyozli huquqqa ega shaxslarning ro‘yxati tuzilgan sana (sanani belgilash tartibi); bu usulda joylashtirilayotgan obligatsiyalarni olishga bo‘lgan imtiyozli huquqni amalga oshirish ehtimoli to‘g‘risida bildirish tartibi; bu usulda joylashtirilayotgan obligatsiyalarni olishga bo‘lgan imtiyozli huquqni amalga oshirish tartibi; obligatsiyalarni ovoz beruvchi aksiyalarga ayirboshlash tartibi.).*	**Порядок осуществления преимущественного права приобретения размещаемых облигаций, конвертируемых в голосующие акции** *(В случае предоставления преимущественного права приобретения размещаемых облигаций конвертируемых в голосующие акций, указываются: дата (порядок определения даты) составления списка лиц, имеющих такое преимущественное право; порядок уведомления о возможности осуществления преимущественного права приобретения размещаемых таким способом облигаций; порядок осуществления преимущественного права приобретения размещаемых таким способом облигаций; порядок конвертации облигаций в голосующие акции.):*
	Ushbu obligatsiyalar chiqarilishi ovoz berish huquqiga ega bo‘lgan aksiyalarga ayirboshlanmaydigan hisoblanadi, shu sababli mazkur chiqarilishdagi joylashtirilayotgan obligatsiyalarni sotib olishda imtiyozli huquqni amalga oshirish ko‘zda tutilmagan.	Настоящий выпуск облигаций не является конвертируемым в голосующие акции, в связи с чем, осуществление преимущественного права приобретения размещаемых облигаций настоящего выпуска не предусмотрено.
11.6.	**Ushbu chiqarilishdagi obligatsiyalar bahosi (baholari) yoki joylashtirish bahosini belgilash tartibi:** *(Obligatsiyalar bahosi (baholari) yoki joylashtirish bahosini belgilash tartibi ko‘rsatiladi. Agar ushbu chiqarilish ovoz beruvchi aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarilishi bo‘lsa, qo‘shimcha ravishda ovoz beruvchi aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalarni xarid qilishda imtiyozli huquqqa ega shaxslarga obligatsiyalarni joylashtirish bahosi yoki joylashtirish bahosini belgilash tartibi ko‘rsatiladi.)*	**Цена (цены) или порядок определения цены размещения облигаций данного выпуска** *(Указывается цена (цены) или порядок определения цены размещения облигаций. В случае, если данный выпуск является выпуском облигаций конвертируемых в голосующие акции, то дополнительно указывается цена или порядок определения цены размещения облигаций лицам, имеющим преимущественное право приобретения облигаций, конвертируемых в голосующие акции.):*
	Obligatsiyalarni joylashtirishning 12 ta oraliq davrining har birining birinchi kunidagi joylashtirish narxi ularning nominal qiymatiga, ya’ni 100 000 so‘mga teng bo‘ladi. Ushbu davrlarning har birining ikkinchi kunidan boshlab, obligatsiyalar nominal qiymatiga to‘plangan foizli daromad (TFD) qo‘shilgan holda sotiladi. TFD quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi: **TFD = N * C (%) * ((T^{+2}-Ti) / 365),** bu yerda: N - bitta obligatsiyaning nominal qiymati: 100 000 (yuz ming) so‘m; C (%) - foiz stavkasi: yillik **28% (yigirma sakkiz foiz);** T^{+2} - obligatsiyalarni joylashtirish bitimi tuzilgan kundan boshlab ikkinchi ish kuni; Ti - bitim tuzilgan oraliq davrning boshlanish sanasi. Eslatma: Bir dona obligatsiyaning joylashtirish narxi bir tiyingacha aniqlashtiriladi va matematik yo‘l bilan yaxlitlanadi. Agar yaxlitlanayotgan raqamdan keyingi birinchi raqam 0 dan 4 gacha bo‘lsa, butun tiyinning qiymati o‘zgarmaydi. Agar yaxlitlanayotgan raqamdan keyingi birinchi raqam 5 dan 9 gacha bo‘lsa, butun tiyinning qiymati 1 ga oshiriladi.	Цена размещения облигаций в первый день каждого из 12 промежуточных периодов размещения будет равна их номинальной стоимости, то есть 100 000 сум. Начиная со второго дня каждого из этих периодов, облигации будут продаваться по номинальной стоимости с добавлением накопленного процентного дохода (НПД). НПД определяется по следующей формуле: **НПД = N * C(%) * ((T^{+2}-Ti)/365)**, где: N – номинальная стоимость одной облигации: 100 000 (сто тысяч) сум; C(%) – процентная ставка: **28% (двадцать восемь процентов)** годовых; T^{+2} - второй рабочий день с даты сделки размещения облигаций; Ti – дата начала промежуточного периода, в котором была совершена сделка. Примечание: Цена размещения одной облигации определяется с точностью до одного тийина посредством математического округления. Значение целого тийина не изменяется, если первая цифра, следующая за округляемой, равна от 0 до 4, и изменяется, увеличиваясь на 1, если первая цифра, следующая за округляемой, равна от 5 до 9.
11.7.	**Obligatsiyalarni to‘lash shartlari va tartibi:** *(Obligatsiyalarni to‘lash shartlari, tartibi, shu jumladan hisob-kitoblarning shakli, kredit tashkilotlarining to‘liq va qisqartirilgan firma nomlari, ularning joylashgan joyi, Obligatsiyalar to‘lanishiga kelib*	**Условия и порядок оплаты облигаций** *(Указываются условия, порядок оплаты облигаций, в том числе форма расчетов, полное и сокращенное фирменное наименование кредитных организаций, их место нахождения, банковские реквизиты счетов, на*

	tushadigan pul vositalari ko‘chirilishi lozim bo‘lgan hisobvaraqlarning bank rekvizitlari, to‘lov shoxobchalarining manzili (naqd pul shaklida to‘langanda). *Obligatsiyalar pul bo‘lmagan vositalar bilan to‘langan taqdirda obligatsiyalar to‘lanishi mumkin bo‘lgan mol-mulk, to‘lov shartlari bunday to‘lov sharoitida rasmiylashtiriladigan hujjatlar (mol-mulkni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi va hokazo) bilan, shuningdek bunday mol-mulkning bozor qiymatini aniqlash uchun jalb qilinadigan baholovchi (baholovchilar) to‘g‘risidagi quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatiladi:* *baholovchining to‘liq va qisqartirilgan firma nomlari, joylashgan joyi;* *baholovchi tashkilotning professional jamoat birlashmasiga a’zoligi to‘g‘risidagi guvohnoma raqami va berilgan sanasi).*	*которые должны перечисляться денежные средства, поступающие в оплату облигаций, адреса пунктов оплаты (в случае наличной формы оплаты).* *В случае оплаты облигаций не денежными средствами указывается имущество, которым могут оплачиваться облигации, условия оплаты, включая документы, оформляемые при такой оплате (акты приема-передачи имущества и т. д.), а также следующие сведения об оценщике (оценщиках), привлекаемом для определения рыночной стоимости такого имущества:* *полное и сокращенное фирменное наименование, место нахождения оценщика;* *номер и дата выдачи свидетельства о членстве в профессиональном общественном объединении оценочных организаций)*
